NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

UO‘K (UDK): 1(091)+165.82+130.121

BOLONYA JARAYONI VA O‘ZBEKISTONDA KASBIY TA’LIMNING IJTIMOIY-FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI

Qo‘chqarov Oybek G‘ulomovich
Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID ID 0009-0005-9663-8512
E-mail: oykuchkarov@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda Bolonya jarayonini professional ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif Yevropa oliy ta’lim modeli milliy madaniyat, an’analar va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan holda qanday moslashtirilishi mumkinligini o‘rganadi. Xususan, O‘zbekiston ta’lim tizimining madaniy va qadriy xususiyatlarini saqlab qolish zarurati, shuningdek, professional ta’limni xalqaro standartlar asosidagi yagona ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: Bolonya jarayoni, professional ta’lim, ijtimoiy-falsafiy tahlil, milliy qadriyatlar, ta’lim islohotlari, akademik mobillik, mehnat bozori, ta’limni modernizatsiya qilish

БОЛОНСКИЙ ПРОЦЕСС И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: *В статье с социально-философской точки зрения анализируется интеграция Болонского процесса в систему профессионального образования Узбекистана. Автор исследует, каким образом европейская модель высшего образования может быть адаптирована в гармонии с национальной культурой, традициями и потребностями рынка труда. Особое внимание уделяется необходимости сохранения культурных и ценностных особенностей образовательной системы Узбекистана, а также вопросу интеграции профессионального образования в единую образовательную систему на основе международных стандартов.*

Ключевые слова: *Болонский процесс, профессиональное образование, социально-философский анализ, национальные ценности, образовательные реформы, академическая мобильность, рынок труда, модернизация образования*

THE BOLOGNA PROCESS AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF PROFESSIONAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract: *This article analyzes, from a socio-philosophical perspective, the integration of the Bologna Process into Uzbekistan’s professional education system. The author examines how the European model of higher education can be adapted in harmony with national culture, traditions, and labor market needs. Particular attention is given to the need to preserve the cultural and value-based characteristics of Uzbekistan’s education system, as well as to the integration of professional education into a unified educational system based on international standards.*

Keywords: *Bologna Process, professional education, socio-philosophical analysis, national values, educational reforms, academic mobility, labor market, modernization of education*

Kirish

Bolonya jarayoni O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi masalasi nafaqat texnik-administrativ, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan jarayondir. Bu jarayon zamonaviy ta’limni faqat global standartlarga moslashtirish emas, balki milliy qadriyatlar, jamiyat ehtiyojlari va tarixiy-madaniy kontekstda qayta anglash zaruratini tug‘diradi.

Ta’lim har qanday jamiyatda inson kapitalini shakllantirish, ijtimoiy taraqqiyotga yo‘naltirish va shaxsni jamiyatga tayyorlash vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Bolonya jarayonining O‘zbekistonda joriy etilishi - jamiyatda ta’limga bo‘lgan yondashuvni modernizatsiya qilish, uni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog‘lashga xizmat qilishi mumkin[9].

Biroq bu yondashuv har doim ham bevosita ijobiy natija bermaydi. Ta'lim tizimiga tashqi modelni koʻr-koʻrona joriy etish, mavjud ijtimoiy muhit, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajriba bilan zid kelishi mumkin.

Kasbiy ta'lim tizimi har doim jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar oʻrtasidagi tafovutlarni kamaytirish yoki aksincha, mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekistonda bu tizim, koʻpincha, yuqori ijtimoiy maqomga ega boʻlmagan qatlam vakillari uchun «muqobil yoʻl» sifatida qaralgan. Bunday yondashuv esa kasbiy ta'limning ijtimoiy nufuzini pasaytirgan.

Bolonya jarayonining maqsadlaridan biri - barcha ta'lim shakllarini (shu jumladan, professional ta'limni) teng huquqli va integratsiyalashgan tizimga aylantirishdir[8]. Bu esa kasbiy ta'limni ham oliy ta'lim bilan uygʻunlashtirish, mehnat bozori bilan bogʻlash, ijtimoiy lift sifatida mustahkamlash imkonini beradi.

Ta'lim nafaqat bilim beruvchi tizim, balki shaxsning oʻzini jamiyatda qanday koʻrishini shakllantiruvchi muhim omildir. Kasbiy identiklik (ya'ni, inson oʻz kasbini ijtimoiy rol sifatida qabul qilishi) orqali mehnatga munosabat, mas'uliyat va oʻzini anglash darajasi shakllanadi. Agar kasbiy ta'lim hayotda faqat «muqobil variant» sifatida talqin qilinsa, bu kasb egalarining ijtimoiy motivatsiyasini pasaytiradi.

Bolonya jarayoni mehnatga yondashuvni zamonaviylashtirish, kasbiy tayyorgarlikni shunchaki texnik jarayon emas, balki shaxsiy va ijtimoiy oʻsish vositasi sifatida talqin qilish imkoniyatini beradi. Bu esa jamiyatda kasb va mehnatga boʻlgan munosabatni qayta koʻrib chiqishni talab qiladi.

Bularning ustiga, Bolonya jarayonining madaniy-ma'naviy jihatlari ham befarq qarash mumkin boʻlmagan masala. Yevropadagi ta'lim modeli koʻproq individual yondashuvga, oʻz fikrini ochiq ifodalashga, raqobatga asoslanadi. Oʻzbekistonda esa ta'lim jarayoni asrlar davomida jamoaviylik, ustoz-shogirdlik an'analariga tayangan. Bu ikki yondashuvni toʻqnash keltirmasdan, aksincha, ularni bir-birini boyitadigan shaklda uygʻunlashtirish - bu biz kutgan natijaga olib boradigan asosiy kalitdir.

Yana bir muhim jihat - kasbiy ta'lim tizimi hali toʻliq isloh qilinganicha yoʻq. Hozirda bu tizim sanoat va iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashishda, zamonaviy texnologiyalarni oʻquv jarayoniga integratsiya qilishda, xalqaro malaka standartlariga yaqinlashishda muayyan muvozanatni topishga harakat qilmoqda. Ammo bu - tezda hal boʻladigan masala emas. Bu - vaqt, siyosiy iroda va intellektual resurslar talab qiladigan murakkab, ammo zarur yoʻldir.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni koʻrsatadiki, Bolonya jarayoni Oʻzbekiston kasbiy ta'lim tizimiga nafaqat tashqi standartlar majmuasi sifatida, balki chuqur ijtimoiy-ma'naviy oʻzgarishlar vositasi sifatida qaralishi kerak. Bu oʻzgarishlar shunchaki tizimda emas, balki ongda, qadriyatlardagi transformatsiyani ham nazarda tutadi. Shu bois Bolonya jarayonini milliy kontekstda uygʻunlashtirish - ijtimoiy ong, madaniy meros va zamonaviy ehtiyojlar muvozanatiga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili

Bolonya jarayonining Oʻzbekiston ta'lim tizimiga ta'sirini oʻrganishda falsafiy va ijtimoiy-konseptual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola metodologik jihatdan ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida qurilgan boʻlib, kasbiy ta'limning nafaqat tashkiliy tuzilmasi, balki uning madaniy-ma'naviy, gʻoyaviy hamda ijtimoiy mazmuni ham tahlil qilinadi.

Faylasuf olim X.T. Saidov ta'limga falsafiy yondashuvning zarurligi va bu jarayonda insonning jamiyatdagi oʻrni qay darajada muhim ekani koʻrsatib oʻtilgan. Muallif ta'lim tizimida faqat tashqi shakllar emas, balki ichki mazmun, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy funksiyalarning uygʻunlashuviga alohida urgʻu beradi [6]. Ushbu yondashuv Bolonya jarayonining Oʻzbekiston ta'lim tizimiga moslashuvi uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. **J.I.Inoyatov** esa kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlar ijtimoiy buyurtma va iqtisodiy ehtiyojlar bilan uygʻunlashgan holda olib borilishi kerakligi ta'kidlanadi. Muallif kasbiy ta'limni modernizatsiya qilishda ijtimoiy farosat va madaniy omillarni hisobga olish zarurligini asoslab beradi [5]. Bu fikrlar Bolonya jarayonini milliy kontekstda joriy etishda e'tiborga molik.

Sh.Q.Yunusova ta'lim tizimining tarixiy-madaniy asoslarini tahlil qilgan. U Oʻzbekiston ta'lim tizimining ustoz-shogirdlik, jamoaviylik va milliy qadriyatlar asosidagi rivojlanishini ta'riflaydi [10]. Bu madaniy komponentlar Bolonya jarayonining Oʻzbekistonga integratsiyasi jarayonida yoʻqotilmasligi kerak boʻlgan muhim omillar sifatida koʻrilmoqda.

Yu.A. Zubok postsovet makonida ta'lim islohotlari, ayniqsa, inson kapitalini rivojlantirish bilan bogʻliq jihatlar yoritilgan. Zubok ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi inson salohiyatini oshirishda muhim omil boʻlishi mumkinligini ta'kidlaydi [4]. **M.Gurevich** Markaziy Osiyo kontekstida kasbiy ta'limning falsafiy asoslari koʻrib chiqilgan. Muallif bu transformatsiyaning faqat tashqi shakllarga emas, balki mahalliy madaniyat, qadriyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarga asoslangan boʻlishi kerakligini ta'kidlaydi [3]. Bu yondashuv maqolamizda ilgari surilayotgan milliy va global mezonlar uygʻunligini tushunishda gʻoyaviy asos boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Gʻarbiy pedagogik tafakkurning ikki yirik vakili - **Jon Dyui** va **P. Freyre**ning qarashlari ham tahlilda asos sifatida olingan. Dyui ta'limni demokratik jamiyat qurilishidagi asosiy omil sifatida talqin etsa [1], Freyre bu borada ta'limni «ozodlikka eltuvchi vosita» sifatida talqin qiladi, jamiyatga yot boʻlgan, faqat yuqoridan tushirilgan model emas,

balki ichki ehtiyojlar asosida rivojlanadigan tizim boʻlishi kerakligini ta’kidlaydi [2]. Bu yondashuvlar orqali Bolonya jarayonining insonparvarlik va ijtimoiy adolatga xizmat qiluvchi tamoyillarini anglash mumkin boʻladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ijtimoiy falsafaning nazariy-metodologik apparatiga tayanadi va sifat tahliliga asoslangan. Ushbu maqolada quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Ijtimoiy-falsafiy yondashuv - ta’lim jarayonini jamiyatdagi ijtimoiy oʻzgarishlar, madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bogʻliqlikda tahlil qilish imkonini beradi;

Tarixiy-tahliliy usul - Oʻzbekiston ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari va Bolonya jarayonining kontekstual mosligini aniqlashda qoʻllanildi;

Qiyosiy tahlil - Yevropa va Oʻzbekiston ta’lim tizimlarining asosiy farqlari va umumiyliklarini aniqlashga xizmat qildi;

Normativ-analitik usul - Bolonya jarayonining rasmiy hujjatlari, milliy qonunchilik va me’yoriy hujjatlar asosida tahlil qilindi.

Natijalar va ularning tahlili

Bolonya jarayoni haqida yozilgan koʻplab tadqiqotlar bu tizimning ikki tomonlama xususiyatini ta’kidlaydi: bir tomondan, u akademik mobillikni kengaytiradi, ilmiy hamkorlikni ragʻbatlantiradi; ikkinchi tomondan esa, milliy ta’lim tizimining oʻziga xosligini yoʻqotish xavfi mavjud. Mazkur maqola metodologik jihatdan ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida qurilgan boʻlib, Oʻzbekistonning ijtimoiy-madaniy kontekstida Bolon tizimining imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda Bolonya jarayoni elementlarini joriy etishga qaratilgan harakatlar asta-sekinlik bilan shakllanmoqda. Bakalavriat va magistratura tizimlarining yoʻlga qoʻyilishi, oʻquv dasturlarining zamon talablari asosida qayta koʻrib chiqilishi - bularning barchasi oʻzgarishlar sari tashlangan muhim qadamlardir. Milliy malaka doirasini ishlab chiqish, kredit-modul tizimini joriy qilish, baholash mezonlarini zamonaviylashtirish ham bu yoʻnalishda olib borilayotgan amaliy ishlarning bir qismidir.

Biroq, bularning barchasi hali jarayonning boshlangʻich bosqichi, va yoʻl davomida muayyan muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Jumladan:

– oʻquv dasturlarining mazmuni aksariyat hollarda mehnat bozori ehtiyojlariga toʻlaqonli javob bermaydi;

– akademik mobillik amaliy jihatdan sust rivojlangan, asosan xorijiy grantlarga tayanadi;

– kasbiy ta’lim tizimida nazariya bilan amaliyot oʻrtasida jiddiy tafovut saqlanib qolmoqda.

Bolonya jarayoni gʻarbcha modelga asoslangan boʻlib, unda shaxsiy yutuqlar, raqobatbardoshlik, akademik erkinlik va individual rivojlanish markazda turadi. Oʻzbekiston ta’lim tizimi esa tarixan ustoz-shogirdlik, jamoaviylik, axloqiy tarbiya kabi kollektiv qadriyatlarga asoslangan.

Bu ikki yondashuv oʻrtasidagi tafovut ijtimoiy ongda muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, Bolonya jarayonini toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirib olish emas, balki uni milliy qadriyatlar asosida moslashtirish zarur. Bu yerda «falsafiy uygʻunlik» gʻoyasi dolzarb boʻlib, tashqi va ichki tamoyillarni qarama-qarshilikda emas, balki bir-birini toʻldiruvchi tizim sifatida qarash lozim.

Shu bois, Oʻzbekistonda Bolonya jarayonining joriy qilinishi bir tomondan integratsion imkoniyatlarni kengaytirayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, oʻzligimizni saqlab qolgan holda global ta’lim makoniga uygʻunlashish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Xulosa

Bolonya jarayonining Oʻzbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi murakkab, ammo istiqbolli jarayon hisoblanadi. U orqali xalqaro tajriba oʻzlashtirilishi, oʻqituvchilar va talabalar mobilligi oshishi mumkin.

Kasbiy ta’lim tizimining islohi esa mamlakatning iqtisodiy va sanoat ehtiyojlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, zamonaviy texnologiyalarni oʻquv jarayoniga kiritish va xalqaro malaka standartlariga yaqinlashish yoʻlida davom ettirilishi zarur. Bu murakkab, ammo shartli vazifa boʻlib, milliy oʻzlikni saqlagan holda global ta’lim tizimiga kirish imkonini beradi.

Kelajakdagi muvaffaqiyatli transformatsiya - bu islohotlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uygʻunlashuvi, ijtimoiy buyurtma bilan muvofiqlashtirilgan professional ta’lim modeli yaratish orqali ta’minlanadi. Oʻzbekiston Bolonya jarayonidan nafaqat texnik me’zonlar, balki ta’limni insonparvarlashtirish va ijtimoiy barqarorlik vositasi sifatida foydalanishni maqsad qilishi lozim.

Muallif hissasi, manfaatlar toʻqnashuvi va moliyalashtirish

Muallif hissasi. Maqola yakka muallif tomonidan tayyorlangan. Tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish, metodologiyani belgilash, manbalarni tanlash va tahlil qilish, konseptual modelni asoslash, matnni yozish va yakuniy tahrirdan oʻtkazish ishlarini muallifning oʻzi bajargan.

Manfaatlar to‘qnashuvi. Muallif manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligini ma’lum qiladi.

Moliyalashtirish. Tadqiqot uchun tashqi moliyaviy yordam, grant yoki loyiha mablag‘lari olinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.

2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. - London: Bloomsbury Publishing, 2018. - 229 p.

3. Gurevich M. Philosophical Grounds for the Transformation of Vocational Education in Central Asia. // Central Asian Journal of Education. - 2021. - Vol. 7, No. 2. - P. 55-71.

4. Zubok Yu. A. The Post-Soviet Education Reform and Human Capital Development. // Russian Education and Society. - 2020. - Vol. 62, No. 9-10. - P. 789-805.

5. Inoyatov J.I. Kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-farosatli asoslari. - Toshkent: Ta’lim, 2021. - 198 b.

6. Saidov X.T. Falsafa va ta’lim: nazariy-metodologik yondashuvlar. - Toshkent: Fan, 2019. - 240 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Kasbiy ta’lim sohasidagi islohotlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar. - Toshkent, 2023.

8. Jaynarov O.Sh. Boloniya jarayoni va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida malaka oshirishning qiyosiy tahlili // Science and Research. - 2025. - Vol. 2, № 10. - B. 382-384.

9. Jumanov F.S. Oliy ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari // Science and Research. - 2025. - Aprel. - B. 520-523.

10. Yunusova Sh.Q. O‘zbekistonda ta’limning madaniy va ma’naviy negizlari. // Falsafa va hayot. - 2020. - №3. - B. 25-31.

References

1. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.

2. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – London: Bloomsbury Publishing, 2018. – 229 p.

3. Gurevich M. Philosophical Grounds for the Transformation of Vocational Education in Central Asia // Central Asian Journal of Education. – 2021. – Vol. 7, No. 2. – P. 55–71.

4. Zubok Yu. A. The Post-Soviet Education Reform and Human Capital Development // Russian Education and Society. – 2020. – Vol. 62, No. 9–10. – P. 789–805.

5. Inoyatov J.I. Kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-farosatli asoslari. – Tashkent: Ta’lim, 2021. – 198 p.

6. Saidov X.T. Falsafa va ta’lim: nazariy-metodologik yondashuvlar. – Tashkent: Fan, 2019. – 240 p.

7. Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. Statistical data on reforms in the field of professional education. – Tashkent, 2023.

8. Jaynarov O.Sh. Boloniya jarayoni va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida malaka oshirishning qiyosiy tahlili // Science and Research. – 2025. – Vol. 2, No. 10. – P. 382–384.

9. Jumanov F.S. Oliy ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari // Science and Research. – 2025. – April. – P. 520–523.

10. Yunusova Sh.Q. O‘zbekistonda ta’limning madaniy va ma’naviy negizlari // Falsafa va hayot. – 2020. – No. 3. – P. 25–31.